XALQ DEPUTATLARI TERMIZ SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 10-fevral VII-5-16-8-121-K/25 Termiz shahar

2025-yilda Termiz shahar bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va yer qa’ridan foydalanganlik uchun bazaviy soliq stavkalariga qo‘llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo‘llash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Soliq va budjet siyosatining 2025-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida” 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1014-sonli Qonuni bilan O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 445-, 452-moddalariga kiritilgan o‘zgartirishlarga muvofiq, shahar Soliq inspeksiyasining 2025-yil 22-yanvardagi 18-00978-son xatini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan, xalq deputatlari Termiz shahar Kengashi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining “Soliq va budjet siyosatining 2025-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida” 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1014-sonli Qonuni bilan O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 445-, 452-moddalariga kiritilgan o‘zgartirishlar rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Shahar Soliq inspeksiyasi hududlarning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi hamda shahar hokimligining 2025-yil uchun belgilangan mahalliy budjet prognozidan kelib chiqib, shahar bo‘yicha 2025-yilda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalarining mutlaq miqdorlariga nisbatan kamaytiriluvchi va oshiriluvchi koeffitsiyentlarni qo‘llash bo‘yicha takliflari inobatga olib:

2025-yil uchun Termiz shahar hududida yer qaridan foydanilganlik uchun soliq stavkasi va 1-ilovaga hamda suv solig‘i stavkasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, xalq deputatlari shahar Kengashiga ushbu qarorning 1-2-ilovalariga asosan belgilangan soliq stavkalariga nisbatan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni kelgusi yil uchun mahalliy budjet daromadlari prognozidan, shaharda iqtisodiy faollikning tiklanganligi hamda aholi va tadbirkorlarning daromadlari barqarorlashganligidan kelib chiqqan holda qo‘llashlari tavsiya etilsin.

3. Termiz shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari – shahar Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i Sh.Dusmuratov, shahar Soliq inspeksiyasi (S.Muxamadiyev) birgalikda mazkur qaror o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsinlar.

Bunda:

- 2025-yil uchun yer qa’ridan foydalanganlik hamda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarini o‘z vaqtida va to‘liq to‘lab borishlarini nazoratga olish;

- 2025-yil uchun yer qa’ridan foydalanganlik uchun hamda suv resurslaridan foydalanganlik uchun yer solig‘i va undirilgan soliqlar to‘g‘risida xalq deputatlari shahar Kengashiga hisobot berib borish vazifasi yuklatilsin.

4. Shahar hokimligi Axborot xizmati (A.Qosimova) va “Termiz oqshomi” gazetasi tahririyati (A.Radjabov)ga mazkur qarorni ijtimoiy tarmoqlar hamda shahar hokimligining rasmiy sahifalaiga yoritilishini ta’minlasin.

5. Mazkur qaror ijrosining nazorati shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari – shahar Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i Sh.Dusmuratov hamda xalq deputatlari shahar Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (A.Mustafakulov) zimmasiga yuklansin.

6. Ushbu qaror tasdiqlangan kundan kuchga kiradi.

Sessiya raisi NORMURADOVA DILBAR ABDIKOSIMOVNA

Xalq deputatlari Termiz shahar
Kengashining
2025-yil 10-fevraldagi
VII-5-16-8-121-K/25 -son qaroriga
1-ilova

O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 445-moddasiga muvofiq Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar

(qishloq ho‘jaligi, elektr stansiyalari, kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari va ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq to‘lovchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi)

T/r	Hudud nomi	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YaTTlar		Sanoat korxonalari		Avtotransport vositalarini yuvish		Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)	
		Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti
1	Termiz shahri	1,5	1,5	1,5	1,5	1,5	1,5	1,5	1,5

Izoh: O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 445-moddasiga muvofiq "Belgilangan limit doirasida yer usti va yer osti manbalaridan olinadigan suv resurslari uchun" soliq stavkalari mutlaq miqdorda bir kub metr uchun soliq stavkalariga xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari tomonidan qo‘llanilayotgan oshiruvchi va kamaytiruvchi koeffitsientlar mazkur moddaning 2-3-bandlari, shuningdek ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlangan yirik soliq to‘lovchilarga tatbiq etilmasligi belgilab qo‘yilsin.

Xalq deputatlari Termiz shahar
Kengashining
2025-yil 10-fevraldagi
VII-5-16-8-121-K/25 -son qaroriga
2-ilova

O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 452-moddasiga muvofiq 2025-yil uchun Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar

T/r	Hudud nomi	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chig‘anoq, ohaktosh *(sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari)*, dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosienitlar, sienitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	Tabiiy bezaktoshdan bloklar	Marmar	Granitlar	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	G‘isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	Qum-shag‘al aralashmasi, qurilish qumi, qumtoshlar)
1	Termiz shahri	1,3	1,3	1,3	1,3	1,3	1,3	1,3